

**ELEKTRON TIJORATDA SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARDAN
FOYDALANISHNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH VA UNI
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

Davronov Otabek

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada elektron tijoratda shaxsga doir ma'lumotlardan foydalanishni huquqiy tartibga solish masalalari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining tegishli qonunchiligi hamda xalqaro huquqiy normalar tahlil qilinadi. Mavzuni tahlil qilish jarayonida elektron tijoratda shaxsga doir ma'lumotlardan foydalanishning asosiy muammolari aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha huquqiy takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: shaxsiy ma'lumotlar himoyasi, elektron tijorat, ma'lumotlarni qayta ishlash, O'zbekiston qonunchiligi, maxfiylikni ta'minlash, GDPR, shaxsiy ma'lumotlar sub'ekti, kiberxavfsizlik, huquqiy tartibga solish, ma'lumotlar uzatish, huquqiy muammolar, ma'lumotlarni ulushlash.

**ВОПРОСЫ ЛЕГАЛИЗАЦИИ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ
ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПЕРСОНАЛЬНЫХ ДАННЫХ В ЭЛЕКТРОННОЙ
ТОРГОВЛЕ**

Давронов Отабек

Магистрант Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация: в статье рассматриваются вопросы правового регулирования использования персональных данных в электронной коммерции. В исследовании анализируется соответствующее законодательство Республики Узбекистан и международно-правовые нормы. В процессе анализа темы выявлены основные проблемы использования персональных данных в электронной коммерции и выдвинуты правовые предложения по их устранению.

Ключевые слова: защита персональных данных, электронная коммерция, обработка данных, законодательство Узбекистана, конфиденциальность, GDPR, субъект персональных данных, кибербезопасность, правовое регулирование, передача данных, правовые вопросы, обмен данными.

ISSUES OF LEGAL REGULATION AND IMPROVEMENT OF THE USE OF PERSONAL DATA IN ELECTRONIC COMMERCE

Davronov Otabek

Master's student of Tashkent State Law University

Abstract: this article considers the issues of legal regulation of the use of personal data in electronic commerce. The study analyzes the relevant legislation of the Republic of Uzbekistan and international legal norms. In the process of analyzing the topic, the main problems of the use of personal data in electronic commerce are identified and legal proposals are put forward to eliminate them.

Keywords: personal data protection, electronic commerce, data processing, legislation of Uzbekistan, ensuring confidentiality, GDPR, personal data subject, cybersecurity, legal regulation, data transfer, legal issues, data sharing.

KIRISH

Elektron tijoratning jadal rivojlanishi shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va qayta ishlash jarayonlarini sezilarli darajada oshirdi. Global miqyosda onlayn xaridlar, elektron to'lov tizimlari va raqamli xizmatlardan foydalanuvchilar sonining ortishi bilan shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish muammosi dolzarb masalaga aylandi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 2023-yilda elektron tijorat global bozorining hajmi 6,3 trillion AQSh dollariga yetgan¹, bu esa foydalanuvchilarning

¹ Forbes Advisor. (2024). «35 Top E-Commerce Statistics». <https://www.forbes.com/advisor/business/ecommerce-statistics>.

katta miqdordagi shaxsiy ma'lumotlari internetda ishlov berilayotganini anglatadi. Shu bilan birga, ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiylik bilan bog'liq muammolar ham kuchayib bormoqda.

Elektron tijoratda shaxsiy ma'lumotlarning huquqiy jihatdan tartibga solinishi nafaqat biznes subyektlari, balki iste'molchilar huquqlarining himoyasi uchun ham muhim hisoblanadi. Xalqaro tajribada shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha eng yirik huquqiy mexanizmlardan biri bu Yevropa Ittifoqining Umumiy ma'lumotlarni himoya qilish reglamenti (GDPR) bo'lib, u ma'lumotlar subyektlarining huquqlarini kengaytirgan va ma'lumotlarni qayta ishlovchi tashkilotlarga qat'iy talablar qo'ygan. Shuningdek, AQSh, Xitoy va boshqa rivojlangan davlatlar ham o'ziga xos huquqiy mexanizmlar orqali elektron tijoratda shaxsiy ma'lumotlarni tartibga solmoqda.

O'zbekiston Respublikasida shaxsiy ma'lumotlarni huquqiy himoya qilish bo'yicha bir qator normativ-huquqiy hujjatlar mavjud. 2019-yilda qabul qilingan "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonuni² ma'lumotlar subyektlarining huquqlarini belgilab bergan bo'lsa-da, uning amaliyotda qo'llanishida ayrim muammolar kuzatilmoqda. Xususan, shaxsiy ma'lumotlarni noqonuniy qayta ishlash, ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash, xalqaro standartlarga mos kelish masalalari hali to'liq hal etilmagan.

Shu sababli, ushbu tadqiqot elektron tijoratda shaxsiy ma'lumotlardan foydalanish bilan bog'liq asosiy muammolarni huquqiy nuqtayi nazardan tahlil qiladi hamda O'zbekiston qonunchiligini xalqaro tajriba bilan taqqoslab, mavjud muammolarning huquqiy yechimlarini taklif etishga qaratilgan.

Ushbu tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi:

² O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi O'RQ-547-sonli Qonuni. <https://lex.uz/docs/4396428>.

Normativ-huquqiy tahlil: O‘zbekiston Respublikasining shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilishga oid qonunchilik bazasi, xususan, “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonun, “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonun, “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonun va boshqa me’yoriy hujjatlar tahlil qilindi.

Taqqoslash usuli: O‘zbekiston qonunchiligi xalqaro standartlar, ayniqsa, GDPR (General Data Protection Regulation) qoidalari bilan taqqoslandi.

Ilmiy tahlil: Ilmiy maqolalar, monografiyalar, xalqaro konferensiyalar materiallari va amaliyotdagi tajribalar tahlil qilindi.

Solishtirma usul: Turli mamlakatlarning elektron tijoratda shaxsiy ma’lumotlardan foydalanishni tartibga solish tajribasi o‘rganildi.

Tadqiqot davomida yig‘ilgan ma’lumotlar asosida muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi.

TADQIQOT NATIJALARI

O‘zbekiston Respublikasida elektron tijoratda shaxsiy ma’lumotlarni huquqiy tartibga solish bo‘yicha mavjud qonunchilik bazasi ayrim asosiy normalarni o‘z ichiga olsa-da, amaliyotda qator muammolar mavjudligi aniqlangan. Tadqiqot natijalari quyidagi yo‘nalishlarda huquqiy tahlil asosida baholandi:

1. Shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilish huquqiy asoslarining rivojlanishi O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuni (2019) elektron tijorat ishtirokchilarining shaxsiy ma’lumotlari bilan ishlash tartibini belgilaydi. Ushbu qonunga ko‘ra, shaxsiy ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va uzatish faqat qonuniy asosda amalga oshirilishi lozim. Ammo shu bilan birgalikda xorijiy kompaniyalar O‘zbekiston fuqarolarining shaxsiy ma’lumotlarini qay ko‘rinishda saqlashi, uni mamlakat hududida joylashgan serverlarda saqlashi tartiboti to‘laligicha hal

etilmagan masalalardan biri hisoblanadi. Bu esa bir tarafdin ma'lumotlar suverenitetini ta'minlashga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan xalqaro elektron tijorat kompaniyalari uchun ma'lum cheklovlarni yuzaga keltiradi.

2. Navbatdagi masala ma'lumotlarni noqonuniy yig'ish va qayta ishlash muammolari bo'lib, ushbu tadqiqot davomida elektron tijorat sohasida shaxsiy ma'lumotlarning noqonuniy qayta ishlanishi muhim muammolardan biri ekanligi aniqlangan. Xususan:

- Foydalanuvchilarning roziligisiz ma'lumotlar yig'ilishi;
- Ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga noqonuniy uzatish amaliyoti;
- Maxfiylik siyosatlarining noaniq yoki foydalanuvchilar uchun murakkab shaklda taqdim etilishi.

Amaldagi qonunchilikda bunday holatlar uchun javobgarlik choralari mavjud bo'lsa-da, huquqni muhofaza qilish amaliyotida ushbu qoidalar yetarlicha qo'llanilmayotgani kuzatilmoqda.

3. Shuningdek, mamlakatimiz qonunchiligining xalqaro standartlarga muvofiqligi ta'minlash ham muhim masalalardan hisoblanadi. Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha xalqaro tajribani tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, Yevropa Ittifoqining GDPR reglamenti³ ma'lumotlar subyektlarining huquqlarini ta'minlash bo'yicha eng mukammal yondashuvlardan biri hisoblanadi. O'zbekiston qonunchiligida GDPR bilan o'xshashliklar mavjud bo'lsa-da, quyidagi asosiy farqlar kuzatiladi:

- ma'lumotlarni qayta ishlashning huquqiy asosi: O'zbekistonda ma'lumotlarni qayta ishlashga rozilik asosiy talab bo'lib qolayotgan bo'lsa,

³ GDPR – Regulation (EU) 2016/679, 27 April 2016. <https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2016/679/oj>.
SJIF: 5.051

GDPRda esa huquqiy manfaat, shartnoma majburiyatlari yoki jamoat manfaatlari kabi qo‘shimcha asoslar ham mavjud.

- huquqni buzganlik uchun javobgarlik: GDPR doirasida kompaniyalarga yirik miqdorda jarima solish mexanizmi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, O‘zbekistonda ma’lumotlar xavfsizligini buzgan tashkilotlarga qo‘llaniladigan sanksiyalar nisbatan yumshoqroq va ba’zi holatlarda aniq ko‘rsatilmagan.

- ma’lumotlar subyektlarining huquqlari: Shu bila birgalikda ta’kidlanib o‘tilishi joizki, ko‘plab foydalanuvchilarning o‘zining shaxsga doir ma’lumotlarini o‘chirib tashlash yoki bir subyektdan ikkinchi subyektga ko‘chirish huquqlari aniq belgilab qo‘yilmagan.

4. Yana bir eng muhim masalalardan biri bu kiberxavfsizlik va ma’lumotlarning xavfsizligi ta’minlashdir. Ayniqsa elektron tijorat sohasida kiberxavfsizlik bilan bog‘liq muammolar dolzarb bo‘lib, shaxsiy ma’lumotlarning o‘g‘irlanishi yoki ulardan noqonuniy foydalanish hollari xalqaro miqyosda ham, O‘zbekistonning ichki bozorida ham uchrab turibdi. Xususan:

- Elektron tijorat platformalarida himoya mexanizmlarining yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagani;
- Foydalanuvchilar uchun ma’lumotlar maxfiyligini ta’minlash bo‘yicha yetarlicha ma’lumot berilmagani;
- Ma’lumotlarni shifrlash va himoyalash texnologiyalarining barcha kompaniyalar tomonidan joriy etilmaganligi.

O‘zbekistonning “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonuni (2022) ushbu yo‘nalishda muhim qadam bo‘lsa-da, uning tadbirkorlik subyektlari tomonidan amaliy tatbiqi hali sust kechmoqda.

TAKLIF ETILAYOTGAN HUQUQIY CHORALAR

O‘zbekiston Respublikasida elektron tijorat sohasida shaxsiy ma’lumotlarni huquqiy muhofaza qilish tizimini mustahkamlash va xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadida quyidagi normativ-huquqiy takomillashtirish yo‘llaridan foydalanish tavsiya etilishi mumkin:

1. Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha vakolatli davlat organining funksional vakolatlarini kengaytirish

Amaldagi qonunchilik doirasida shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha davlat nazorati belgilangan bo‘lsa-da, uning yanada samarali amalga oshirilishi uchun quyidagilar taklif etilinishi mumkin:

- **Qonunchilik monitoringini kuchaytirish:** Shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlashga oid milliy normativ-huquqiy hujjatlarning xalqaro standartlarga, jumladan, Yevropa Ittifoqining **Umumiy ma’lumotlarni himoya qilish reglamenti (GDPR)** talablariga muvofiqligini doimiy baholash va takomillashtirish mexanizmini joriy etish
- **Tekshiruv mexanizmlarini institutsionallashtirish:** Shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlovchi subyektlarning axborot xavfsizligi siyosati va maxfiylik standartlariga muvofiqligini aniqlash maqsadida reja asosida profilaktik tekshiruvlarni tashkil etish.
- **Huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni kuchaytirish:** Shaxsiy ma’lumotlarni noqonuniy yig‘ish, qayta ishlash yoki uchinchi shaxslarga uzatish bilan bog‘liq qonunbuzarliklar uchun huquqiy javobgarlik choralari, jumladan, yirik miqdordagi jarimalar va ma’lumotlarni qayta ishlash faoliyatini cheklash kabi sanksiyalarni kuchaytirish.

2. Ma’lumotlarni mahalliy serverlarda saqlash talablarini huquqiy jihatdan reglamentatsiya qilish

O'zbekiston fuqarolarining shaxsiy ma'lumotlari mamlakat hududida joylashgan serverlarda saqlanishi shartligi bo'yicha normativ talablarni aniqlashtirish va takomillashtirish zarur. Bunda quyidagilar nazarda tutilishi lozim:

- **Transchegaraviy ma'lumotlar almashinuvi tartibini aniqlash:** Xorijiy yuridik shaxslarning O'zbekiston fuqarolariga tegishli ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash majburiyatlarini milliy qonunchilik asosida huquqiy tartibga solish.

- **Mahalliy server infratuzilmasini rivojlantirishga oid majburiyatlarni belgilash:** Elektron tijorat subyektlari uchun ma'lumotlarni lokal serverlarda saqlash shartini bosqichma-bosqich joriy etish va ushbu infratuzilmani yaratish uchun huquqiy rag'batlantirish choralari ishlab chiqish.

3. Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash uchun rozilik berish tartibini reglamentlash

Ma'lumotlarni qayta ishlashda shaxslarning roziligini olish bo'yicha aniq huquqiy me'yorlarni belgilash zarur, jumladan:

- **Rozilik berish tartibini soddalashtirish va shaffoflashtirish:** Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash bo'yicha rozilik shakllarini foydalanuvchilarga tushunarli va yuridik jihatdan asoslantirilgan shaklda taqdim etish.

- **Maxsus rozilik kategoriyalarini joriy etish:** Ma'lumotlarni qayta ishlash maqsadiga qarab, foydalanuvchilardan aniq yo'nalishlar bo'yicha alohida rozilik olish tizimini qonunchilikda mustahkamlash.

4. Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishga oid milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga uyg'unlashtirish

O‘zbekiston Respublikasining shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishga oid qonunchiligini xalqaro tajribaga, ayniqsa GDPR talablariga muvofiqlashtirish uchun quyidagi huquqiy o‘zgartirishlarni amalga oshirish lozim:

- **Ma’lumotlarni qayta ishlashning huquqiy asoslarini kengaytirish:** GDPR talablari asosida shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlash uchun rozilikdan tashqari boshqa huquqiy asoslarni, jumladan, qonuniy manfaat, jamoat ehtiyojlari yoki shartnoma majburiyatlari asosida qayta ishlash imkoniyatini qonuniylashtirish.

- **Foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlariga oid huquqlarini kengaytirish:** Ma’lumotlar subyektlariga o‘z shaxsiy ma’lumotlarini o‘chirib tashlash (right to be forgotten) yoki boshqa ma’lumotlar operatoriga o‘tkazish (data portability) imkoniyatini ta’minlovchi normalarni qonunchilikka kiritish.

- **Huquqbuzarliklar uchun sanksiyalar tizimini kuchaytirish:** Ma’lumotlarni noqonuniy qayta ishlash yoki maxfiylik qoidalariga rioya qilmaslik uchun kompaniyalarga nisbatan sezilarli miqdordagi jarimalar va ma’muriy choralar ko‘rish mexanizmini ishlab chiqish.

5. Elektron tijorat platformalarida kiberxavfsizlikni kuchaytirish bo‘yicha huquqiy mexanizmlarni joriy etish

Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish bilan bog‘liq kiberxavfsizlik choralarini huquqiy jihatdan mustahkamlash maqsadida quyidagi tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- **Axborot xavfsizligi bo‘yicha majburiy choralarni belgilash:** Elektron tijorat platformalarida shaxsiy ma’lumotlarni shifrlash, ikki bosqichli autentifikatsiya tizimlarini joriy etish va ma’lumotlar buzilishining oldini olish uchun himoya mexanizmlarini qonuniy ravishda majburiy etib belgilash.

- **Ma'lumotlar buzilishi holatlari bo'yicha xabar berish majburiyatini joriy qilish:** Agar shaxsiy ma'lumotlar bilan bog'liq xavfsizlik buzilishi holati yuz bersa, kompaniyalar ushbu holat haqida davlat organlari va jabrlanuvchilarga ma'lum qilishga majbur bo'lishi kerak.
- **Axborot xavfsizligi bo'yicha muntazam audit tizimini yo'lga qo'yish:** Ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha milliy qonunchilik talablariga muvofiqlikni baholash maqsadida yirik elektron tijorat subyektlari uchun yillik mustaqil audit o'tkazish majburiyatini joriy etish.

XULOSA

Umumiy olganda, ushbu tadqiqot davomida elektron tijorat sohasida shaxsga doir ma'lumotlardan foydalanishni huquqiy tartibga solish masalalari batafsil tahlil qilindi. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi hamda xalqaro standartlar, xususan, Yevropa Ittifoqining GDPR reglamenti bilan taqqoslash orqali mamlakatimiz qonunchiligidagi mavjud kamchiliklar va muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish uchun huquqiy takliflar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish sohasida normativ-huquqiy baza mavjud bo'lsa-da, uning samarali amalga oshirilishi va xalqaro standartlarga to'liq moslashuvi uchun hali bir qator muhim o'zgarishlar zarur. Xususan, ma'lumotlarni mahalliy serverlarda saqlash tartibini aniq va qat'iy belgilash, shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashda rozilik berish mexanizmlarini soddalashtirish va shaffoflashtirish, hamda kiberxavfsizlik choralarini huquqiy jihatdan mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilishi lozim.

Shuningdek, davlat organlarining nazorat funksiyalarini kengaytirish, qonunbuzarliklar uchun javobgarlikni kuchaytirish hamda elektron tijorat

platformalarida maxfiylik va xavfsizlik standartlarini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yo'nalishdagi takomillashtirishlar nafaqat iste'molchilar huquqlarini himoya qiladi, balki elektron tijorat subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishga, xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishga ham xizmat qiladi.

Umuman olganda, elektron tijoratda shaxsga doir ma'lumotlarni huquqiy tartibga solish tizimini takomillashtirish O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotini rivojlantirish va fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlarini ishonchli himoya qilishda muhim omil bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN AABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni. (2019-yil 2-iyul, O'RQ-547-son).
2. O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonuni. (2021-yil 15-mart, O'RQ-669-son).
3. O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonuni. (2003-yil 11-dekabr, O'RQ-560-son, oxirgi o'zgartirishlar bilan).
4. General Data Protection Regulation (GDPR) – Yevropa Ittifoqining umumiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi reglamenti. (2018-yil 25-may).
5. California Consumer Privacy Act (CCPA) – Kaliforniya iste'molchilarining shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish to'g'risidagi qonuni. (2018-yil 28-iyun).
6. Kuner, C. (2013). Transborder Data Flows and Data Privacy Law. Oxford University Press.

7. Bygrave, L. A. (2014). Data Privacy Law: An International Perspective. Oxford University Press.
8. Greenleaf, G. (2014). Asian Data Privacy Laws: Trade and Human Rights Perspectives. Oxford University Press.
9. Schwartz, P. M., & Solove, D. J. (2011). The PII Problem: Privacy and a New Concept of Personally Identifiable Information. New York University Law Review, 86(6), 1814–1894.
10. Svantesson, D. J. B. (2013). Extraterritoriality in Data Privacy Law. Ex Tuto Publishing.
11. Tene, O., & Polonetsky, J. (2012). Privacy in the Age of Big Data: A Time for Big Decisions. Stanford Law Review Online, 64, 63–69.